

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXROROVA UMIDA XAMIDULLAYEVNA**

**PEDAGOGIK JARAYONNI TIZIMLI TAHLIL ETISHNING NAZARIY  
ASOSLARI (Oliy ta'lim misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Axrorova Umida Xamidullayevna**

Pedagogik jaryonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslari (Oliy ta’lim misolida) ..... 3

**Ахророва Умида Хамидуллаевна**

Теоретические основы системного анализа педагогического процесса (на примере высшего образования) ..... 25

**Akhrorova Umida Khamidullaevna**

Theoretical bases of analyzing the pedagogical process systematically (on the example of Higher Education)..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXROROVA UMIDA XAMIDULLAYEVNA**

**PEDAGOGIK JARAYONNI TIZIMLI TAHLIL ETISHNING NAZARIY  
ASOSLARI (Oliy ta'lim misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PHD/Ped3955 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining e-mail: info@bimm.uz va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Alimardonov To‘lqin Turdiyevich**  
siyosiy fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuzlikayev Farit Rafailovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Isyanov Ravil Gennadevich**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta‘lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “12” 09 soat 11<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (998) 71-203-01-28.) faks: (998) 71-202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta‘lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 3 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (998) 71-203-01-28.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “ 26 ” 08 kuni tarqatildi.  
(2024-yil “ 26 ” 08 daqiqa 3 raqamli reestr bayonnomasi).



**U.Sh.Begimkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**A.S.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ya.U.Ismadiyarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda taraqqiyotni ta'minlovchi sohalarni rivojlantirish, ularning barqaror o'sib borish dinamikasini ta'minlashda tizimli tahlildan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasi ham mamlakatni rivojlanish tendensiyalarini belgilab beruvchi yo'nalishlardan biri bo'lganligi bois, ta'limni tubdan modernizatsiya qilish, o'qitish metodikasini zamonaviy ta'lim sharoitlari talablariga mos ravishda yangilash, pedagog mutaxassislarni tayyorlashga asoslangan oliy ta'lim tizimini ta'limning barcha bosqichlari bilan o'zaro integrativ yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashda tizimli tahlilning nazariy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va pedagogik jarayonning yaxlit tizim sifatidagi innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Dunyoning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda zamonaviy pedagogik jarayonda tizimli yondashuv muammosi va uning nazariy asoslarini modernizatsiyalash ta'limiy muammolarni tez va qulay bartaraf etish asosi sifatida qaralmoqda. Ta'lim tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish va o'quv jarayonini zamon talablari asosida tashkil qilish muammolari tizimli pedagogik tahlil munosabatlarining barqarorligini ta'minlashni taqozo etadi. Shu bois zamonaviy ta'limda zamonaviy pedagogika imkoniyatlarini tizimli tahlilning nazariy imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirishning nazariy-metodik jihatlari va ilg'or texnologik uslublarini takomillashtirib borish vazifalari vujudga kelmoqda.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim islohotlari orqali yangi davr uchun poydevor yaratish o'z-o'zidan pedagogika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi. Buning uchun "biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi"<sup>1</sup> sifatida ko'rib, ularning faoliyatini tizimli tahlil qilish imkoniyatini yaratish, pedagogik faoliyatni tizimli analitik tahlil qilish bilan integratsiyalash talab etiladi. Shuning uchun yurtimizda pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish, o'qitish, tarbiyalash va inson taraqqiyotidagi bir qator yangi paradigmalari – yondashuvlar (kulturologik, antropologik, sinergetik, akmeologik)ni o'zlashtirishni taqozo qilmoqda. Bu esa, pedagogik jarayonda tizimli tahlilni amalga oshirish funksiyalari, metodlari va ularni amalga oshirish bosqichlarini yoritib berish, pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishning funksional-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish va nazariy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи Бутунжаҳон конференцияси очилиш маросимидаги нутқи, 2022 йил 15 ноябрь

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida", 2022-yil 21-iyun PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, ta'lim istiqbollari belgilashning konseptual asoslari M.Tojiyev, Z.Muxammadov, R.Samarov, T.Alimardonov, S.Jo'rayev, G.Gregoriy, S.Turg'unov, B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyeva, D.Yunusova, M.Keldiyorova, A.Abdullayev, V.Karimova, G.G'afurova, Sh.Turdiyev, N.Muslimov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Yu.Surmin, A.Antonov, O.Apolov, F.Tarassenko, F.Peregudov, B.Gerasimov, L.Viktorova, E.Korchehen, E.Vinogray ilmiy tadqiqotlarida tizimli tahlil asoslarining nazariy va metodologik asoslari, tizimli tahlil nazariyalari, jumladan, tizim nazariyasining umumiy tadqiqot yo'nalishlari hamda tizim klassifikatsiyasi o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan B.Lyudvig Fon, K.Boulding, U.Eshbi, E.S.Bauer, E.A.Lodatko, V.V.Drujnin, T.Parsons, B.Gary, J.Nielsen, Yu.Z.Kushner, I.Lisev, I.Blauberglar tomonidan pedagogik tizimli tahlil nazariyasi, tizim tushunchasining paydo bo'lishi, hamda fan rivojlanish mantig'i bilan bog'liq qonuniyatlarning nazariy asosari bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Biroq pedagogik tizimli tahlilning nazariy asoslarini o'rganish va bu boradagi yondashuvlarni zamonaviylashtirish mazkur sohaga doir maxsus ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 561624-EPP. "O'zbekiston oliy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va xalqarolashuvini rivojlantirish" (2022-2023-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'limda pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

“tizimli tahlil” tushunchasining mohiyati, uning klassik ta’limotlari va konseptual asoslarining rivojlanish jarayonlarini ochib berish;

pedagogik jarayonda tizimli tahlilni amalga oshirish funksiyalari, metodlari va ularni amalga oshirish bosqichlarini yoritib berish;

pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishning funksional-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish;

oliy ta’lim tizimida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirish va nazariy asoslarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Guliston davlat pedagogika instituti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Namangan davlat universitetlarining 31 nafar professor-o‘qituvchilari va 320 nafar talabalari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirish mazmuni, tuzilmasi, metodlar, yondashuvlar va texnologiyalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli tahlil asoslarini aniqlovchi diagnostik metodikalar, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, nazariy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish, mohiyat va hodisaga yondashuv singari nazariy-metodologik uslublar hamda yondashuvlar, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“tizimli tahlil” tushunchasining mohiyati ilmiy bilimlar haqida ularning shakli, mazmuni, shuningdek, batafsil tekshirish, aniq tushuncha va tasdiqlarni ilgari surish darajasiga muvofiq maqbul tasavvurni yaratishga qaratilgan jarayon sifatida kichik, o‘rta, katta va ulkan pedagogik tizimlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi obyektivligini faktik materiallarning retrospektivlik darajasi izchilligi va uzviyligiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

tizimli tahlilni amalga oshirishning boshqaruvchanlik, diagnostik, ogohlantiruvchi funksiyalari funksional-strukturaviy, morfologik, genetik, o‘xshashlik, samaradorlik kabi tadqiqiy metodlarni pedagogik jarayonlarda qo‘llashning o‘rganiladigan hamda o‘rganuvchi tizimning dastlabki (kirish) va yakuniy (xulosa) bosqichlari bilan integrativlik darajasi intensiv ta’siri maqbulligi, validligini qat’iy belgilash orqali aniqlashtirilgan;

pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning funksional-tuzilmaviy modeli kompleks, normativ, innovatsion, integratsion, vaziyatli, xulqqa oid yondashuvlarning pedagogik jarayonni tashkil etish va tizimli tahlil qilish funksiyalari (oldindan ko‘rish, axborot tahlil, maqsadli-motivlashtirish, tartibga solish, shaxs-faoliyatli) va usullarining (funksional, aksiologik, vaziyatli, kontseptual) identivligi produktogenligi in’ikosi va jadalligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning trendlari(tendensiyalari)ni aniqlash, muammolar diagnostikasi, faktor (omilli) tahlil kabi ustuvor yo‘nalishlari “dinamik tizim”ning texnologik ta’minotini ishlab chiqishga doir kontseptual, innovatsion, tadqiqiy, edukologik asoslarning pragmatiklik xususiyati dialektikasini formal mantiq bilan integratsiyalashish darajasini tizim hosil qilish imkoniyatini kengaytirish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanma chop etilgan;

“Pedagogikada tizimli tahlil” tanlov fanining o‘quv dasturi ishlab chiqilgan;  
o‘qituvchi va talaba faoliyatini tizimli tahlil qilish texnologiyalari takomillashtirilgan;

pedagogik jarayonda talabalar faoliyatini tizimli tahlil qilish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligini, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “tizim”, “pedagogik tizim”, “tizimli tahlil”, “struktura”, “element” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berilganligi, tizimli tahlilning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, kontseptual asoslari, tamoyillari, metodlarining asoslanganligi, tizimli tahlilga doir pedagogik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatining yoritib berilganligi, pedagogik tizimli tahlil metodologiyasining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqiy metodlarni tizimli tahlilni amalga oshirishning boshqaruvchanlik, diagnostik, ogohlantiruvchi funksiyalari, funksional-strukturaviy, morfologik, genetik, o‘xshashlik, samaradorlik kabi tadqiqiy metodlari, o‘rganiladigan hamda o‘rganuvchi tizimning dastlabki va yakuniy bosqichlari aniqlashtirilganligi, pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning funksional-tuzilmaviy modeli, pedagogik jarayonni tashkil etish va tizimli tahlil qilish usullari, oliy ta’limda pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta’limda pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

“tizimli tahlil” tushunchasining mohiyatini ilmiy bilimlar haqida ularning shakli, mazmuni, shuningdek, batafsil tekshirish, aniq tushuncha va tasdiqlarni ilgari surish darajasiga muvofiq maqbul tasavvurni yaratishga qaratilgan jarayon sifatida kichik, o‘rta, katta va ulkan pedagogik tizimlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi obyektivligini faktik materiallarning retrospektivlik darajasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug‘i, 537126-raqamli guvohnoma). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tizim va tizimli tahlilga doir bilimlarini tarkib toptirishga xizmat qilgan;

tizimli tahlilni amalga oshirishning boshqaruvchanlik, diagnostik, ogohlantiruvchi funksiyalarini funksional-strukturaviy, morfologik, genetik, o‘xshashlik, samaradorlik kabi tadqiqiy metodlarni pedagogik jarayonlarda qo‘llashning o‘rganiladigan hamda o‘rganuvchi tizimning dastlabki va yakuniy



bosqichlari bilan integrativlik darajasi intensiv ta'sirini qat'iy belgilash orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) amaliy loyihasining innovatsion pedagogik texnologiyalar qismini amalga oshirishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 17-noyabrdagi 02-07-5082/04-son dalolatnomasi). Natijada, pedagogikada tizimli tahlilning innovatsion pedagogik texnologiyalari takomillashtirishga xizmat qilgan;

pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning funksional-tuzilmaviy modelini kompleks, normativ, innovatsion, integratsion, vaziyatli, xulqqa oid yondashuvlarning pedagogik jarayonni tashkil etish va tizimli tahlil qilish funksiyalari va usullarining identivligi produktogenligini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yo'nalishida belgilangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish" 39-bandiga muvofiq "Milliy tarbiya ensiklopediyasi"ni yaratish" bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 13-noyabrdagi 415-sonli dalolatnomasi). Natijada, uzluksiz ma'naviy tarbiyada tizimli tahlilni qo'llash metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning trendlarini aniqlash, muammolar diagnostikasi, faktor tahlil kabi ustuvor yo'nalishlarini "dinamik tizim"ning texnologik ta'minotini ishlab chiqishga doir kontseptual, innovatsion, tadqiqiy, edukologik asoslarning pragmatiklik darajasi dialektikasini formal mantiq bilan internallashuv darajasini kengaytirish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan tarix bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug'i, 537126-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonni tizimli tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi

va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning ilmiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tizimli tahlilning nazariy-metodologik va konseptual asoslari, tizimli tahlil tushunchasi, obykti va predmeti hamda tizimli yondashuv metodlari shakllari tadqiq etilib tahlil qilingan.

Hozirgi zamon ta'lim tizimining bosh maqsadlaridan biri yuqori madaniyatli, tizimli fikrlay oladigan, oldinda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab muammolarni yecha biladigan, komil insonni tarbiyalash tizimini yaratishdir. XXI asr pedagogi – nafaqat o'qituvchi, tarbiyachi, avvalambor u – yuqori darajada tizimli fikrlovchi va izlanuvchi pedagogdir.

Pedagogik faoliyatda tizim tushunchasi atrofga yaxlit voqeylik sifatida ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab o'zaro bog'liq elementlarni tartibga solish va umumiy maqsadga birlashtirilgan funksional yagona boshqaruv demakdir. Pedagogik tizim jamiyat tomonidan nazoratga olinadi va uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi. Pedagogik tizim mazmun-mohiyatini maqsad va uni amalga oshiruvchi vositalar tashkil etadi. Maqsad insonning ongli faoliyatini ifoda etuvchi maqsadlilik, maqsad yo'nalishi pedagogik tizim kategoriyasi bo'lib hisoblanadi.

Tizimli tahlil – aniq maqsadli ilmiy tadqiqot faoliyatining turi bo'lib, bunda tadqiqotchi diqqat-e'tibori ilmiy bilimlar haqida ularning shakli, mazmuni, shuningdek, batafsil tekshirish, aniq tushuncha va tasdiqlarni ilgari surish darajasiga muvofiq maqbul tasavvurni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Olima V.A.Karimova tadqiqotlarida tizimiy tahlil - bu murakkab tizimlarni boshqarishni tashkil qilish, turli hil xarakterdagi juda kata miqdordagi ma'lumotni baholash nuqtai nazaridan qaror qabul qilish muammolarini o'z ichiga oladigan ilmiy fan. Tizimiy tahlil eng soddalashtirilgan shaklda, qaror qabul qilayotganda o'rganilayotgan obyekt, jarayon, hodisaning mumkin bo'lgan jihatlari va bog'lanishlarini e'tiborsiz qoldirmaslikka imkon beradigan ma'lum uslubdir deb alohida ta'kidlaydi.

N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, tizimlilik butun olamning umumiy xususiyatidir. Tabiat, jamiyat, inson faoliyati va fikrlashidagi tizimlilik bunga misol bo'la oladi. Ushbu umumiy xususiyatdan kelib chiqib, “tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllaridir, demak, pedagogik faoliyatning ham tizimli qurilishga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik jarayonda tizimli tahlil obykti oldidagi vazifalarga quyidagilar kiradi:

- ta'lim tizimining strategiyasini belgilash, davlatning ta'limga bo'lgan talablarini o'rganish;
- ta'lim tizimiga daxldor bo'lgan tizimosti aloqador munosabatlarni shakllantirishning kompleks vositalarini shakllantirish;
- pedagogik funksional faoliyatning turli soha tizimlarini loyihalash va moddiy-texnik ko'rsatkichlarini asoslash;

- pedagogik tizimlarning tashkiliy-boshqaruv strukturalarini takomillashtirish;
- jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarida talab-ehtiyojlarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash texnologiyalarini takomillashtirish;
- tizimli tahlil natijalarida ilmiy-pedagogik hamda boshqaruv faoliyatlarida qo'llashni maqbul modellarini tatbiq etish;
- pedagogik muammoni vujudga kelishi, kechishi va uni bartaraf etishda tizimli tahlilning ahamiyati, qaror qabul qilishda manfaatlarni inobatga olinishi haqida ma'lumot berish;
- ta'limga ta'sir etuvchi shaxs rivoji qonuniyatlari va mohiyatini, ta'limning maqsadi, ta'limning mohiyati, tarbiya metodlari.

Olimlar tomonidan tadqiq etilgan tadqiqotlarda tizimlar borasidagi ilmiy izlanishlarni umumlashtirish natijasida pedagogik jarayonlarda tizimlar sinflarga ajratildi (1-jadvalga qarang):

### 1-jadval

<b>Pedagogik tizimlar sinfi</b>	
<b><i>Kichik pedagogik tizimlar</i></b>	Ta'lim oluvchilarning tarbiyasiga oid alohida tizimlar mavjud. Masalan, boshlang'ich ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish malakasini hosil qilish, o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyati, kasbga yo'naltirish, huquqiy tarbiya kabi tizimlar.
<b><i>O'rta pedagogik tizimlar</i></b>	Ta'lim muassasasining o'quvchilar, ularning ota-onalari, tashkilotlar bilan bo'lgan barcha faoliyatlari. Tizimlarning bu turi kichik tizimlarni o'zaro bir-biri bilan va tashqi obyektlar bilan bog'laydi.
<b><i>Katta pedagogik tizimlar</i></b>	Tuman, shahar, viloyat ta'lim tizimlarini qamrab oladi. Ularga asosan maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, bilim yurti, litsey, texnikum, madaniyat va ishlab chiqarish muassasalari, maishiy xizmat sohasi, shuningdek, shularni ma'muriy boshqaruvini o'z ichiga olgan yirik ijtimoiy-pedagogik majmualar kiradi.
<b><i>Ulkan tizimlar</i></b>	Yirik pedagogik tizimlar hajm va maqsad jihatidan yirik mintaqalar, respublikalar miqyosidagi ta'lim tizimlari.

Tizimli tahlil fanlararo qo'llaniladigan uslub (vosita)lar orqali muammoni o'rganish va uning xarakteridan kelib chiqqan holda tadqiqotni tanlash, bir-birini to'ldirish, bog'lash bilan amalga oshiriladi. Bunda: a) amaliy jihatdan taalluqliligi bo'yicha ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ekologik, tibbiy, huquqiy, kasbiy sohalar; b) nazariy jihatdan taalluqliligi bo'yicha falsafiy, tarixiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik, biologik, ekologik, huquqiy, texnik, tibbiy, matematik, fizik fan uslublarini ajratish mumkin.

Tizimli tahlil o'z sohasining bilimdoni, yangiliklarga intiluvchan, chuqur mushohada yurita oladigan ijodkor mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi natijasida pedagogik mehnat, shaxs, jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq bo'lgan manfaatlarni rivoji ta'minlanadi. Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etish nazaryasini takomillashtirishda tizimli tahlilga asoslangan metodlarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish usullari, metodlari va amalga oshirish bosqichlarini nazariy tahlil qilish asosida o'rganish, ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil fikrlash, intiluvchanlik, tanqidiy fikrlash, tizimlashtirish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning nazariy usullari belgilab olindi:


Mavhumlikdan aniqlikka qarab borish – tizimning ong va tafakkurda hosil bo‘ladigan mavhum bilimlariga asoslanib, tizim haqida bilim olish;

Ideallashtirish – amalda mavjud bo‘lmagan tizim va (yoki) ichki tizimlarni hayoliy konstruksiyalash (loyihalash), tafakkurda tasavvur qilish yo‘li bilan tizim yoki uning ichki tizimlari haqida bilimlar olish;

Formallashtirish – tizim haqida belgilar yoki formulalar, ya’ni sun’iy keltirib chiqarilgan tillar (masalan, matematika tili) yordamida bilim olish;

Aksiomatizatsiya – tizim yoki jarayon haqida ba’zi bir, ataylab shu uchun ishlab chiqilgan aksiomalar va shu aksiomalar tizimidan chiqish qoidalari yordamida bilim olish;

Virtualizatsiya – tizim haqida alohida muhit, sharoit, bu muhimsiz amalga oshirish mumkin bo‘lmagan holatni (unga o‘rganilayotgan tizim yoki uning o‘rganilayotgan sub’yekti o‘rnatiladi) yaratish orqali tegishli bilimlarni olish (1-rasm).



### 1-rasm. Pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish metodlari va amalga oshirish bosqichlari

Tizimli tahlil asosida qaror qabul qilish uchun turli ko‘rinishga ega bo‘lgan manba tayyorlanadi. Pedagogik faoliyat doirasida bu ma’ruza, tezis, hisobot, tavsiyanoma tarzida ham bo‘lishi mumkin. Chunki tizimli tahlilning bir qator vazifalari mavjud bo‘lib, ular haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish, tahliliy faoliyatni mazmundorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Ularning muhimlarini keltirib o‘tamiz:

1. Tizimli tahlilning boshqaruvchanlik funksiyasi.
2. Tizimli tahlilning diagnostik funksiyasi.
3. Tizimli tahlilning ogohlantiruvchi funksiyasi.

Tizimli tahlilning maqsadi aniqlangach uni amalda tatbiq etishga qaratilgan vazifalar belgilanadi. Tizimli tahlilning vazifalari ma’lum metodlarning qo‘llanilishi bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, tizimli tahlil vazifalarini amalga oshirishda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

1. Funktsional – strukturaviy tahlil. Mavjud tizimni tahlil qilish, tashkil etilajak tizim talablarini shakllantirish, elementlar funktsionalligi qonunlari va tarkibini aniqlash, o‘zaro aloqadorligi hamda yaxlitligini asoslash.

2. Morfologik tahlil – komponentlar aloqadorligi tahlili.

3. Genetik tahlil – vaziyat rivojining sababi, tarixi.

4.O'xshashlik tahlili – mavjud tizimlarni qiyosiy tahlili.

5.Samaradorlik tahlili (natijaviyligi, tezkorligi, tejamkorligi). U o'lov birligini tashkil etadi, samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllantiradi, samaradorlik me'zonlarini ishlab chiqadi, olingan baholar tahlilini amalga oshiradi. Tashkil etilishi lozim bo'lgan tizimning talablarini shakllantiradi.

Tizimli tahlil imkoniyatlaridan intensiv foydalanish sharoiti kengaygan sari maqsadli-rejaviy dastur boshqaruv metodlari yaratildi. Jumladan, u yoki bu muammoni hal etish maqsadida tashkilot faoliyatini tashkil etishda inson va moddiy resurslarni hisobga oluvchi maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Natijada turli sohalar faoliyatini tadqiqot qilishga qaratilgan tizimli tahlilning turli maktablari paydo bo'ldi.

Shunday qilib, tizimli tahlil deb, murakkab hisoblangan ijtimoiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy xarakterga ega bo'lgan masalalarni o'rganish uchun qo'llaniladigan tahliliy vositalar (usullar) yordamida amalga oshiriladigan tahlil turiga aytiladi. "Tizimli tahlil" kursi tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, boshqa fanlar kabi uning ham o'z apparatlari mavjud. Uning asosiy tushunchalari tizim, tahlil va tizimli yondashuv tushunchalari hisoblanadi (3-jadvalga qarang):

### 3-jadval

#### "Pedagogikada tizimli tahlil" tanlov fani taqvim-mavzu rejasi

№	Modullarning nomlanishi va mavzulari	Umumiy soatlar	Auditoriya soatlari	
			Nazariy	Amaliy
1.	Pedagogikada tizimli tahlil tushunchasining mazmun mohiyati, iqtisodiy sohadagi samaradorligi.	4	2	2
2.	Pedagogikada tizimli tahlil – malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili sifatida	8	4	4
3.	Pedagogikada tizimli tahlil jarayonida kreativ fikrlash va yondashuv	6	2	4
4.	Pedagogik jarayonda tizimli tahlil asosida ta'lim sifatini ta'minlashning funksional tuzilmasi	4	2	2
5.	Pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatini tizimli tahlil qilish texnologiyalari	4	2	2
6.	O'quv fanlari bo'yicha nazorat va baholashning tizimli tahlili	4	2	2
<b>Jami:</b>		<b>30</b>	<b>14</b>	<b>16</b>

Tizimli yondashuv ilmiy tadqiqot metodologiyasida muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi murakkab obyektlar – har xil tip va turkumga mansub tizimlarni o'rganish va tuzish metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Xalqaro munosabatlarda ko'p pog'onali, ierarxik, o'zini o'zi uyushtiruvchi obyektlarni bilish, o'rganishda mazkur metoddan, ayniqsa, keng va samarali foydalaniladi.

Dissertatsiyaning "**Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning tashkiliy-metodik shart-sharoitlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik jarayonda tizim tushunchasi, obyekti va predmeti. Pedagogik jarayondagi tizimli yondashuv tamoyillari va tizimli tahlil nazariy asoslari xususida ilmiy tahlil natijalari keltirilgan.

Pedagogik jarayon – bu pedagogik fanlarning muhim va asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Jarayon deb, pedagog tomonidan talabalarning ta'lim olishiga ta'sir ko'rsatish uchun, ta'lim vazifalarini rivojlantirishga qaratilgan, maqsadli yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat turiga aytiladi. Pedagogik

jarayon jamiyatning ta'limga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratiladi. Pedagogik jarayon - ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan tizim hisoblanadi. Pedagogik jarayonni tuzilishi – bu tizimdagi tushunchalarning joylashuvi va o'zaro aloqadorligi demakdir. Pedagogik jarayonlarni qanday qismlar bilan bog'liq ekanligini bilish natijasida ta'limning samaradorligi va sifatini oshirish borasidagi vazifalar yechimini topish mumkin bo'ladi.

Mazkur jarayonning komponentlari mavjud bo'lib, ularga quydagilar kiradi:

- Maqsad va vazifasi;
- mohiyati;
- tashkil etish va ularni boshqarish;
- amalga oshirish metodlari;
- natijalari.

Bundan tashqari pedagogik struktura pedagogik faoliyat qurilishini belgilasa, pedagogik faoliyatning funksiyasi maqsadlarning tashkiliy amaliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat tushunchasi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, ma'naviy va boshqa maqsadlari asosida kelajak avlodni hayotga tayorlashga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muxim tarkibiy qismlari mavjud bo'lib:

Konstruktiv - tizimli tahlil asosida qaror qabul qilish uchun turli ko'rinishga ega bo'lgan manba tayorlanadi bu ma'ruza, tezis, hisobot, tavsifnoma tarzida ham bo'lishi mumkin.


Tashkiliy – O'qituvchi nimani rejalashtirgan bo'lsa, dars mobaynida yuqori tashkiliy mahorat bilan ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishga erishishi lozim bo'ladi.

Kommunikativ – o'qituvchilar, ma'muriyat, ota-onalar va o'quvchilar bilan munosabat o'rnatishni belgilaydi. Aynan ta'lim jarayonlarida o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati konstruktiv va tashkiliy komponentlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishga doir quyidagi komponentlar aniqlandi: pedagogik jarayonlarni nazariy tahlil etish, oliy ta'lim tizimi strukturasi o'ld tahlillarni tizimlashtirishning dolzarb muammolarini aniqlash va oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish, tizimli tahlil metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalarga tayanish. Shundan kelib chiqib pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning nazariy asoslarini takomillashtirishning funksional modelini ishlab chiqdik.

Model komponentlari o'zaro bir-biri bilan mustahkam aloqadorlikka ega bo'lib, pedagogik jarayonni tizim tahlili etishning nazariy asoslarini takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, quyida mazkur komponentlarning mohiyatini yoritib beramiz:

Modelning maqsadi pedagogik jarayonni tizim tahlili etishning nazariy asoslarini takomillashtirishdan iborat etib belgilandi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar aniqlashtirildi: tizimli tahlilni amalga oshirish uchun, tadqiqot strategisini to'g'ri tanlash va metodlarni belgilash; tizimli tahlil metodlarini amaliy qo'llay olish va olingan natijalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish; oliy ta'lim tizimi uchun axborotlarni tahlilini amalga oshirib, manba tayyorlash; o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida pedagogik jarayonni tahlil etish (2-rasm).



**2-rasm. Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etishning funksional-tuzilmaviy modeli**

Tizimli tahlilda quyidagi yondashuvlar alohida o‘rin egallaydi:

1) Kompleksli yondashuv: Tahlil vaqtida OTMning ham ichki, ham tashqi muhiti hisobga olinadi. Bu faqatgina ichki omillarnigina emas, balki tashqi omillarni ham hisobga olish darkorligini anglatadi - iqtisodiy, geosiyosiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqalar.

2) Integratsion yondashuv: Tizimning axborot ta‘minoti boshqaruvinining funksional aloqalarini tekshirishda integratsion yondashuvdan foydalaniladi. Buning mohiyati shundaki, tadqiqot ham vertikal (tizim boshqaruvining alohida elementlari o‘rtasida), ham gorizontal (ta‘lim bosqichlarining har bir hayotiy siklida) amalga oshiriladi.

3) Vaziyatga asosan yondashuv: Vaziyatga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning mohiyati shundaki, tahlilni amalga oshirishda kenglik diapazoni boshqaruv effektivligiga ta‘sir qiluvchi vaziyat turtki vazifasini bajarishidir. Bunday yondashuv asosida vaziyatning xarakteridan kelib chiqqan holda o‘zining istalgan xarakterini o‘zgartirishi mumkin.

4) Innovatsion yondashuv: Tashqi muhit tomonidan yuz beradigan o‘zgarishlarga tezkor javob qaytarish imkoniyatiga asoslanadi. Bu yangi texnologiyani tatbiq qilish, texnik yechimlar, yangi tovar va xizmatlarni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish, bozor talablarini qondirishga taalluqli. Istalgan tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uning texnik taraqqiyot bilangina emas, uni o‘zib ketishi bilan ham bog‘liqdir.

5) Normativ yondashuv. Ixtiyoriy boshqaruv tizimini mukammallashtirish maqsadidagi tahlil muhim normativlar majmuasiga bog‘liq. Funksional normativlarga rejalarini qayta ishlashning tezkorligi va sifati, quyi bo‘limlarning aniq tashkil qilingani, operativ hisob-kitob va nazorat, har bir tuzilma quyi bo‘limida funksional majburiyatlarining qat‘iy taqsimlanishi kiradi.

6) Xulqqa oid yondashuv: xulqqa qaratilgan yondashuvning mazmuni shundaki, xodim o‘z ish faoliyatini oshirishi, korxonada boshqaruvidagi rolini anglashi uchun sharoit yaratib berish.

Tizimni takomillashtirish tizim ishini kutishga muvofiqligini ta‘minlovchi jarayondir (tizim loyihasi aniqlangan va o‘rnatilgan). Takomillashtirish jarayonida quyidagi muammolar yechiladi:- tizim qo‘yilgan maqsadga javob bermaydi;- tizim natijalarni oldindan aytib berishni ta‘minlamaydi;- tizim boshida tahmin qilinganidek ishlamaydi.

Tizimni takomillashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda xarakterlanadi:

1) topshiriq aniqlanadi va tizim uni tashkil etuvchi tizimosti elementlari o‘rnatiladi;

2) kuzatib borish mobaynida real vaziyat, ishning holati va tizimning qonun-qoidalari aniqlanadi;

3) aniqlik chegarasini aniqlash maqsadida tizimning real va kutilayotgan holati taqqoslanadi (bu mavjud standart va tasniflar asosida taxmin qilinadi);

4) tizimosti chegarasida bu bekor qilinishning sabablariga nisbatan gipotezalar yaratiladi;

5) deduksiya uslubining ma‘lum bo‘lgan omillarga asoslangan holda xulosa qilinadi, katta muammo reduksiya jarayonida yengillashadi.



OTMda tizimli tahlilni samarali tashkil etish, tahlil bosqichlari natijalarini amalga oshirishda o'qitiladigan fan tizimini umumlashtirish muhim sanaladi. Pedagogik jarayonni tizimli tahlil asosida natijadorligini ta'minlashda fanlarning yo'nalishi va xususiyatlaridan kelib chiqib tizimini shakllantirish hamda tahlil qilish tizimli tahlil nazaryasini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Keltirilgan OTMga doir normativ huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, OTM tizimida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkoni berdi. Bular:

Retrospektiv tahlil – bu tizimning uzoq vaqt davomida (oy, choraklik, yil) ishlashi haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlashdir. Retrospektiv tahlilning maqsadlari: 1. Trendlarni (tendensiyalarni) aniqlash. 2. Muammolar diagnostikasi. 3. Faktor (omillar) tahlili.

Faktor tahlili – bu o'zgaruvchilar qiymatlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun ishlatiladigan ko'p o'lchovli usul. Pedagogik tadqiqotlarda tizim elementlari o'zgaruvchilar shaklida tavsiflanishi juda kam uchraydi, qoida tariqasida ular sifat xususiyatlari toifalarida va og'zaki ravishda taqdim etiladi.

Kognitiv (idrok) tahlil – bu bizga kelgan ma'lumotlarni turli yo'llar bilan (idrok etish, tajriba olish, amaliy faoliyatga aylantirish va qayta ishlash qobiliyati) ularni bilimga aylantirish metodi. Kognitiv tahlil pedagogik tadqiqotlarda ko'proq uchraydi. Kognitiv tahlilning maqsadi obyekt va tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirning "chegara" qatlamini tavsiflovchi eng muhim (asosiy) omillarni aniqlash va ular o'rtasida sifatli (sabab) munosabatlarni o'rnatishdir. Ya'ni, o'zgarish jarayonida omillar bir-biriga qanday ta'sir qiladi.

Statistik tahlil turlaridan biri korrelyatsion tahlilidir. Korrelyatsion tahlil – bu ikkita tasodifiy xususiyat yoki omil o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsiyaning matematik nazariyasiga asoslangan usullar to'plami. Eksperimental ma'lumotlarning korrelyatsion tahlili quyidagi asosiy amaliy usullarni o'z ichiga oladi: 1) korrelyatsiya obyektlarini belgilash va korrelyatsiya jadvalini tuzish; 2) namunaviy korrelyatsiya koeffitsiyentlarini yoki korrelyatsiya nisbatini hisoblash; 3) o'zaro bog'liqlikni statistik gipotezasini tekshirish.

Korrelyatsion tahlil – bu o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini va uning qanchalik kuchli ekanligini aniqlash uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlaridan foydalanishga imkon beradigan statistik usul. Korrelyatsiya koeffitsiyenti ikki o'lchovli tavsiflovchi statistika, ikki o'zgaruvchining munosabatlarining miqdoriy o'lchovidir. Korrelyatsiya sodda qilib aytganda, hodisalar ehtimolini taxmin qilishdir.

Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etish metodlari:

Pedagogik tizimlarni tahlil qilishning turli usullarini qo'llash tamoyillari, yana bir bor ta'kidlashni istardimki, tizimli tahlil pedagogik tizimning ilmiy asosi, ekspert tahlili esa pedagogik tizimlarning son tavsiflarini olish va sifatli tahlil qilish uchun asosdir.

Pedagogikada nazariy ta'minotni shakllantirish me'zonlari:

1. Islohotga tortilgan pedagogik jarayonda tizim holatini o'lchash va tahliliy apparatlarini ishlab chiqish.

2. Pedagogik jarayonda tizimni isloh etish maqsadida har taraflama tekshirish va sifatini baholash.

3. Yangilikni modellashtirish maqsadida ilg'or xususiyatlarga ega bo'lgan pedagogik qarorlarning turlarini izlash.

4.Olim va amaliyotchilarda mavjud bo‘lgan ijodiy ishlanmalarning tahliliy bazasini yaratish.

5.Yangi pedagogik jarayonda tizimning innovatsion modelini loyihalashtirish.

6.Yangilikni amaliyotga tatbiq etishning algoritmlarini qurish.

7.Pedagogik jarayonlarda tizimni nomuvofiq “yangiliklardan” himoya qilish.

Pedagogik jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi mezonlar asosida tashxislash mumkin (4-jadvalga qarang):

#### 4-jadval

##### Pedagogik jarayonni tizimli tahlil qilishning usullari va mezonlari

Usullar	Mezonlar	Ko‘rsatkichlari
<i>Funksional tahlil qilish</i>	<i>Yahlitlik</i>	- pedagogik jarayon ishtirokchilarning faoliyatini o‘zaro bog‘liq va aloqadorlik asosida tashkil etilganligini belgilashga doir tahlil qilish
<i>Aksiologik tahlil qilish</i>	<i>Bog‘liqlik</i>	- pedagogik jarayonni tashkil etuvchi o‘qituvchi va talabalar faoliyatini qadriyatlarga asoslangan holda tahlil qilish
<i>Vaziyatli tahlil qilish</i>	<i>Tuzilmaviylik</i>	- pedagogik jarayonlarni samaradorligi oshirishga xizmat qiluvchi ta’limiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularning muqobil yechimlarini topishga qaratilgan tahlil o‘tkazish
<i>Konseptual tahlil qilish</i>	<i>Natijaviylik</i>	- o‘qituvchi va talabalar faoliyatini nazariy jihatdan tadqiq etish, ta’lim funksiyasi, maqsadi va shakllarini tizimli tahlil qilish

Mezon vosita hisoblanadi. Uning yordamida muqobillik o‘lchanadi yoki tanlanadi. Mezon tizimli tahlil bo‘yicha mutaxassisni o‘zi afzal deb bilgan holatning mantiqiylikini ko‘rsatishga undaydi. Mezon muqobilning nisbiy erishishini boshqa choralar (vaqt, narx yoki samaradorlik) atamalarida namoyon qiladi. Mezon bu standart, uning yordamida tanlashning nisbatan foydaliligi to‘g‘risida bir to‘xtamga kelish mumkin.

Ta’lim tizimida o‘qituvchi, talaba va ta’lim muassasasi tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini ta’minlashni pedagogika fanida tizimli tahlilga asoslangan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bunday tizimli tahlilning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkil etuvchi (ko‘rsatkich)larning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. “Dinamik tizim” deyilishiga sabab, ta’limni va ta’lim jarayonining tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo‘lib, takomillashtirilib boriladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda tizim tahlilining quyidagi metodlari - ekspert, retrospektiv, faktor, kognitiv, statistik, korrelyatsiya, vaziyat, SIJT (siyosat, iqtisod, jamiyat, ta’lim) tahlili va SWOT tahlillar bilan amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pedagogik jarayonni tizimli tahlil etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining samaradorligi**” deb nomlanib, ushbu bobda, pedagogik jarayon tuzilmasi va funksiyasi, pedagogik tizim tamoyillari hamda pedagogikada tizimli tahlil texnologiyalari xususidagi izlanishlar qiyosan o‘rganilgan.

Tajriba-sinov ishlari tadqiqotning muhim va hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida qabul qilinib, uni ilmiy pedagogik hamda metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga e'tibor qaratildi. Dastlab sinov ishlarini o'tkazishdan maqsad aniq belgilab olindi, unga imkon beradigan pedagogik vazifalar belgilandi.

Pedagogik jarayonlarda tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdan maqsad: 1) ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli tahlil uslublarini tatbiq etish, undan oqilona foydalanish, amaliyotini joriy etish, 2) pedagogik jamoada tizimli fikrlash malakasini shakllantirish, 3) ta'lim-tarbiya jarayonlarining doimiy monitoringini tashkil etish bilan belgilangan.

Vazifalar mazmunida, asosan, pedagogikada tizimli tahlil, tahlil qilish qoidalari, tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim tizimidagi o'zgaruvchan jarayonlarni tahlil etish asosida malakali kadrlar tayyorlash jarayoni ishtirokchilari (OTM, fakultet, kafedra, professor-o'qituvchilar)ning tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, tizimli tahlilning metodologik asoslarini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlariga respondentlar sifatida Namangan davlat universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Guliston davlat pedagogika instituti talabalaridan 320 nafari va 31 nafar o'qituvchilar hamda ta'lim jarayoniga tegishli bo'limlar jalb qilindi (5-jadvalga qarang).

### 5-jadval

